

BMT vakolatxonasi va “Zamin” fondi tomonidan Jahon bolalar kuniga bag‘ishlangan xalqaro forum o‘tkaziladi

BMTning ixtisoslashgan muassasalari «Zamin» xalqaro jamoat Fondining har yili 20-noyabrda nishonlanadigan Jahon bolalar kuniga bag‘ishlangan veb-forum o‘tkazish tashabbusini qo‘llab-quvvatladi.

2020-yilning 19-noyabrda xalqaro veb-forum doirasida «Bolalarning ta‘lim olish huquqi: pandemiya davridagi dolzarblik, bardavomlik va innovatsiyalar» mavzusida COVID-19 pandemiyasi sharoitida sifatli ta‘limdan foydalanish va uni qamrab olish masalalarini muhokama qilish rejalashtirilgan.

Tadbir ishtirokchilari oldiga muqobil ta‘lim dasturlarini joriy etishning dolzarbligi va imkoniyatlarini baholash vazifasi qo‘yilgan.

BMT Bosh kotibining birinchi o‘rinbosari Amina Mohammad sessiya ishtirokchilari oldida nutq so‘zlaydi. Forumning yalpi majlisidagi xorijiy ishtirokchilar qatorida BMT Bosh kotibining o‘rinbosari Tatyana Valovaya, BMT Bosh kotibining Markaziy Osiyo bo‘yicha maxsus vakili Natalya German va YuNISEFning Yevropa va Markaziy Osiyo bo‘yicha mintaqaviy direktori Afshan Xan ham bor.

Tadbir video-konferensiya formatida o‘tkazilib, unda BMTning boshqa institutlari rahbarlari, xorijiy ekspertlar, shuningdek xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar, davlat organlari, jamoat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari, yoshlar tuzilmalari va O‘zbekistonda akkreditatsiyadan o‘tgan diplomatik korpus vakillari ishtirok etishadi.

Forum natijalariga ko‘ra yakuniy rezolyutsiya qabul qilinadi. Tadbir haqida batafsil ma‘lumot www.childforum.uz rasmiy veb-saytida.

Ma‘lumot uchun

Bolalarning farovonligini ta‘minlash faoliyatiga bag‘ishlangan Butunjahon bolalarni himoya qilish kuni 1954-yilda BMT Bosh assambleyasi tomonidan e‘lon qilingan.

1959-yil 20-noyabrda BMT Bosh assambleyasi tomonidan Bola huquqlari to‘g‘risidagi deklaratsiyani, 1989-yilda esa Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiya qabul qilindi. 1990-yildan boshlab, Butunjahon bolalarni himoya qilish kuni bilan bir qatorda ushbu ta‘sis hujjatlar qabul qilingan kun ham nishonlanadi.

Inson huquqlari to‘g‘risidagi eng muhim shartnoma bo‘lgan Konvensiya bolalar huquqlari to‘plamini, shu jumladan yashash, sog‘liq, ta‘lim olish, dam olish va bo‘sh vaqt o‘tkazish, ota-ona qaramog‘ida bo‘lish, fikr bildirish hamda zo‘ravonlik va kamsitishlardan himoya qilinish huquqlarini o‘z ichiga oladi.

Ushbu muhim kunning BMTga a‘zo davlatlar tomonidan nishonlanishi, muloqot va faol harakatlar orqali dunyoda bola huquqlarini himoya qilish hamda bolalar uchun qulay muhitni rivojlantirish masalasiga jamoatchilik e‘tiborini jalb qilish imkoniyatini beradi.

БМТ ваколатхонаси ва “Zamin” фонди томонидан Жаҳон болалар кунига бағишланган Халқаро форум ўтказилади

БМТнинг ихтисослашган муассасалари “Zamin” халқаро жамоат фондининг ҳар йили 20 ноябрда нишонланадиган Жаҳон болалар кунига бағишланган веб-форум ўтказиш ташаббусини қўллаб-қувватлади.

2020-йилнинг 19-ноябрида Халқаро веб-форум доирасида “Болаларнинг таълим олиш ҳуқуқи: пандемия давридаги долзарблик, бардавомлик ва инновациялар” мавзусида COVID-19 пандемияси шароитида сифатли таълимдан фойдаланиш ва уни қамраб олиш масалаларини муҳокама қилиш режалаштирилган.

Тадбир иштирокчилари олдига муқобил таълим дастурларини жорий этишнинг долзарблиги ва имкониятларини баҳолаш вазифаси қўйилган.

БМТ Бош котибининг биринчи ўринбосари Амина Моҳаммад сессия иштирокчилари олдида нутқ сўзлайди. Форумнинг ялпи мажлисидаги хорижий иштирокчилар қаторида БМТ Бош котибининг ўринбосари Татьяна Валовая, БМТ Бош котибининг Марказий Осиё бўйича махсус вакили Наталья Герман ва ЮНИСЕФнинг Европа ва Марказий Осиё бўйича минтақавий директори Афшан Хан ҳам бор.

Тадбир видео-конференция форматида ўтказилиб, унда БМТнинг бошқа институтлари раҳбарлари, хорижий экспертлар, шунингдек халқаро ва минтақавий ташкилотлар, давлат органлари, жамоат ташкилотлари, оммавий ахборот воситалари, ёшлар тузилмалари ва Ўзбекистонда аккредитациядан ўтган дипломатик корпус вакиллари иштирок этишади.

Форум натижаларига кўра якуний резолюция қабул қилинади. Тадбир ҳақида батафсил маълумот www.childforum.uz расмий веб-сайтида.

Маълумот учун

Болаларнинг фаровонлигини таъминлаш фаолиятига бағишланган Жаҳон болалар куни 1954-йилда БМТ Бош Ассамблеяси томонидан эълон қилинган.

1959-йил 20-ноябрда БМТ Бош ассамблеяси томонидан Бола ҳуқуқлари тўғрисидаги декларацияни, 1989-йилда эса Бола ҳуқуқлари тўғрисидаги конвенция қабул қилинди. 1990-йилдан бошлаб, Бутунжаҳон болаларни ҳимоя қилиш куни билан бир қаторда ушбу таъсис ҳужжатлар қабул қилинган кун ҳам нишонланади.

Инсон ҳуқуқлари тўғрисидаги энг муҳим шартнома бўлган Конвенция болалар ҳуқуқлари тўпламини, шу жумладан яшаш, соғлиқ, таълим олиш, дам олиш ва бўш вақт ўтказиш, ота-она қарамоғида бўлиш, фикр билдириш ҳамда зўравонлик ва камситишлардан ҳимоя қилиниш ҳуқуқларини ўз ичига олади.

Ушбу муҳим куннинг БМТга аъзо давлатлар томонидан нишонланиши, мулоқот ва фаол ҳаракатлар орқали дунёда бола ҳуқуқларини ҳимоя қилиш ҳамда болалар учун қулай муҳитни ривожлантириш масаласига жамоатчилик эътиборини жалб қилиш имкониятини беради.